



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 04 | pp. 115-118 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

MAMLAKATDA QASHSHOQLIKNING GENDER TAFOVUTLARI GENDER ASPECTS OF POVERTY IN THE COUNTRY

Raximova L.SH

Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona



Annotatsiya: Ushbu maqola mamlakatda kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan bo'lib, unda qashshoqlikning gender tafovutlarini o'rganishga bag'ishlangan. Aholi daromadlarini tahlil qilish orqali aholiga ijtimoiy manzilli yordam dasturlarini ishlab chiqish, ayollar qashshoqlik darajasi yuqoriligi sabablarini o'rganish va tashkiliy moliyaviy asoslarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqishni takomillashtirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: kambag'allik, gender, aholi daromadlari, ayollar qashshoqligi, yosh kategoriyasi, mehnat bozori, ishchi kuchi

Аннотация: Данная статья направлена на снижение уровня бедности в стране и посвящена изучению гендерных различий в бедности. Она направлена на совершенствование разработки программ социальной помощи населению путем анализа доходов населения, изучения причин высокого уровня бедности среди женщин и разработки мер, направленных на формирование организационной финансовой основы.

Ключевые слова: бедность, Гендер, доходы населения, бедность среди женщин, возрастная категория, рынок труда, рабочая сила

Abstract: This article is aimed at reducing poverty in the country and is devoted to the study of gender differences in poverty. It is aimed at improving the development of social assistance programs for the population by analyzing the income of the population, studying the reasons for the high level of poverty among women and developing measures aimed at creating an institutional financial framework.

Key words: poverty, Gender, income, poverty among women, age category, labor market, labor force

Kirish. Mamlakatimizda kambag'allikni bartaraf etish milliy loyihalar doirasida shakllantirilgan davlatning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Prezidentimiz 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaaatnomasida ochiq to'xtalib, mamlakat tarixida ilk marotaba qashshoqlikni kamaytirish asosiy vazifalardan biri etib belgilandi. Davlat rahbari farmoniga ko'ra, Mahalla va aholini qo'llab-quvvatlash vazirligi tashkil etildi. Bundan maqsad ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta'minlangan oilalarni qollab-quvvatlash, aholini tadbirkorlik faoliyatiga samarali jalb etishdir. Respublika, viloyat, shahar, tuman, mahalla miqyosida shu yo'nalishda ma'sul lavozimlar yaratildi.

Davlat rahbarining samarali siyosati natijasida hukumat Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tashkil etildi. "Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, 12-

15% yoki 4-5mln kishi kambag'al. Demak ularning daromadi 10-15ming so'mdan oshmaydi. Yoki oilada moshina ham, uy hayvoni ham bo'lishi mumkin, lekin agar odam og'ir kasal bo'lsa, oila daromadining kamida 70%i uni davolashga ketadi. Bunday oilani o'zini-o'zi ta'minlaydigan oila deyish mumkinmi? dedi, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev¹.


Qashshoqlik darajasining kamayishi ijtimoiy himoyaga bog'liq emas. Sezilarli darajada pasayishga erishish uchun aholining ishsiz qatlamini kasb-hunarga o'rgatish, tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish zarur. Hozirgi davrda ayollar va yoshlar orasida 1,4 mlnga yaqin ishsizlar mavjud. Ayollar ishsizlik darajasi 13%ni tashkil etsa, yoshlar ishsizlik darajasi 15%ni tashkil etadi.

Darhaqiqat, ayni damda kambag'allik muammosi juda dolzarb. Jamiyatimizda qashshoqlikning gender tafovvi alohida qiziqish uyg'otadi.

Tahlil. Tarixga yuzlansak, qadimdan insoniyatni o'ylantirib kelayotgan masalalardan biri kambag'allik muammosidir. Bugungi kunda kambag'allik tushunchasiga mamlakatlar o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib ta'rif bermoqdalar va bu masala davrning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. BMTning eng asosiy maqsadlaridan biri bo'lgan kambag'allikni qisqartirish muammosini 2030-yilga qadar ikki barobar kamaytirishga erishish vazifa qilib olingan. BMTning Taraqqiyot dasturi 2023-yil uchun [e'lon qildi](#). O'zbekistonda kambag'allik indeksi bo'yicha so'nggi yigirma yil ichida iqtisodiy o'sish kuzatilib, 2000-yildagi 24 foizdan 2020-yilda 11,5 foizgacha qashshoqlik darajasi pasayib, kambag'allikdan 2,2 million kishi xalos bo'lgan. Kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlarning samarasini ekologik muammolar, energetik inqirozlar, geosiyosiy taranglik, mehnat migratsiyasi kabi global muammolar sezilarli darajada kamaytirgan. 2023-yil yakunida statistika qilinib, joriy yilda qashshoqlik darajasi 14 foizga pasayishga erishilgani ma'lum bo'lgan.

Respublika bo'yicha 1307.8 ming kambag'al oilalar mavjud. Kambag'allik darajasi esa 2023-yilda 2020-yilga nisbatan pasaygan.

Kambag'allik darajasi (amaldagi holat, foiz)



Tumanlar toifasi: ixtisoslashuvi hamda kichik biznes uchun mavjud sharoitdan kelib chiqib, respublikada 208 ta shahar va tumanlar 5ta toifaga ajratilgan bo'lib, bunda 20ta tumanlar 5 toifa (9,6%) sifatida e'tirof etilgan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi 2021yil



5-toifa: Bo'zator, Kegeyli, Qonliko'l, Mo'ynoq, Taxtako'pir, Shumanay, Bo'ston, Ulug'nor, Arnasoy, Dexqonobod, Tomdi, Mingbuloq, Qoshrabod, Sardoba, Bandixon, Qiziriq, Oltinsoy, So'x, Yozyavon va Yangiriq tumanlari².

Bugungi kunga kelib 2 mlndan ortiq odam ijtimoiy nafaqa olyapti. Bu kambag'allikka qarshi kurashning eng yaxshi va samarali yo'nalishlaridan biridir.

Ijtimoiy nafaqalarni berish orqali kambag'allik kamaygan bo'lsa, bu birinchi marta ayollar o'rtasidagi kambag'allikni qisqartirishga qaratildi. Ko'pgina tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ayollarning erkaklarga nisbatan bandlik orqali barqaror daromad olish ehtimoli kamroq. Ayollar ko'pincha to'liq bo'lmagan ish kunida ishlaydilar. Bolalarga g'amxo'rlik qilish va bola tarbiyasi bilan bog'liq ta'tilda bo'ladilar. Ba'zi ayollar esa o'z kuchlarini uy ishlariga sarflaydilar. Bundan tashqari, ayollar odatda past ish haqiga ega, bu esa keyinchalik ayollarning nafaqalarini kamaytirishga olib keladi. Bu holat ko'pincha ayollar orasida qashshoqlik xavfi yuqori bo'lishiga olib keladi. Mamlakatlar bu tengsizlikni taqsimlash tizimida ma'lum darajada qayta taqsimlaydilar. Shunday bo'lsada ayollar va erkaklar daromadlarini bir xil deb bo'lmaydi. Erkaklar va ayollar o'rtasidagi qashshoqlik xavfi turli yosh guruxlarida farqlanadi. Rivojlangan mamlakatlarda yoshlar (16-24yosh) o'rtasida ayollar va erkaklar orasidagi ta'lim darajasi deyarli bir xil. Lekin ayollarning kam haq to'lanadigan kasb guruxlarida daromadi pastligicha saqlanib qolmoqda. Bu esa ayollar va erkaklar daromadlarini tenglashtirishga to'sqinlik qilmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda 16yoshdan 24 yoshgacha hamda 65 yoshdan yuqori ayollarning kambag'allik darajasi shu yoshdagi erkaklarnikidan sezilarli yuqori. Bu ko'rsatkich ayniqsa keksa yoshdagilarda yaqqol namoyon bo'ladi. Qashshoqlik havfidagi farqlarga erkaklarning nisbatan erta ish bilan band bo'lishi ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ammo bu jarayon mamlakatlarda turlicha ro'y beradi. Misol tariqasida Gollandiyani ko'rib chiqsak, u yerda bandlikda deyarli genderlar orasida farq yo'q. Daniya, Buyuk Britaniya va Shvedsiyada esa yoshlar ichida ayollar faolroq ekanini ko'rishimiz mumkin. Keks yoshdagilar bandligidagi farq bo'lsa deyarli barcha mamlakatlarda bir xil namoyon bo'ladi, ayollar mehnat bozorini erta tark etadilar.

² <https://mehnat.uz/oz/news/kambagallik-darajasi-2023-yil-yanvar-iyun>

Xulosa. Kambag'allikni kamaytirish – bu oilaning oylik yoki nafaqasini ko'paytirish, ommaviy kredit berish, degani emas. Ta'bir joiz bo'lsa, shu vaqtgacha biz odamlarimizga baliq berdik. Bu tajriba o'zini mutlaqo oqlamadi. Xalqimizga baliq tutishni o'rgatishimiz, qarmoq berishimiz lozim», Shavkat Mirziyoyev³. Mamlakatda kambag'allik darajasini kamaytirishga qaratilgan sa'y-harakatlar "O'zbekiston-2030" strategiyasida ustuvor yo'nalishlardan biri etib belgilangan. Qashshoqlik xavfi mavjud **4,5 mln** aholi daromadini oshirish hamda mehnat qobiliyatini ishga solish orqali **3 mln** yoshlarni kambag'allikdan olib chiqish vazifasi qo'yilgan. 2026-yilgacha aholi bandligini 2 barobarga olib chiqish, 2030-yilgacha kambag'allikni darajasini yaqqol qisqartirishiga erishish belgilandi. Ayollarning ta'lim olishiga keng imkoniyatlar yaratish, kasb-hunarga o'qitish, mehnat bozorida band bo'lishlariga ko'maklashish va shu tizimni shakllantirishga oid hukumat qarorlari ishlab chiqildi. Unga ko'ra, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan **xotin-qizlarga** qo'shimcha **imtiyozlar** taqdim etiladi. Shu bilan bir qatorda, **ijtimoiy ahvoli og'ir** bo'lgan ayollarni qayta kasbga tayyorlash **xarajatlarini 2024-yildan boshlab** davlat tomonidan moliyalashtiriladi.

Mehnat bozorida xotin-qizlarning ro'lini oshirish, raqobatbardosh muhitni yaratish. Xotin-qizlar bandligini shakllantirishda yengil sanoat, oziq-ovqat, kimyo kabi sanoat tarmoqlarini rivojlantirish va unga ayollarni jalb qilishga e'tibor qaratish joiz. Ayollarning mehnat bozorida bandligi ta'minlanishi uchun bolalarga, keksa yoshdagilar hamda bemorlar g'amxo'rlik qilish uchun sharoit yaratilishi zarur. Xizmat ko'rsatish, hunarmandchilik va kasanachilik sohalariga jalb qilish esa ish bilan ta'minlash bilan bir qatorda ishlaydigan yolg'iz onalarga qulaylik va bandlikning uy bilan uyg'unlashishiga zamin yaratadi. Jaxon Banki hisobotiga ko'ra, mamlakatda bandlikning gender tafovutlari tenglashtirilsa, iqtisodiyotda o'sish tendensiyasi kuzatilib, yalpi milliy daromadni 29 % ga oshirish mumkin.

Kuch, huquq, ovoz va vakolat xotin-qizlarni qashshoqlikdan olib chiquvchi dastak bo'lib xizmat qiladi. Yurtimizda olib borilayotgan islohotlar buning yaqqol dalilidir. Sog'lom oila barpo etish, ijtimoiy taraqqiy etgan jamiyatni shakllantirish va gender tafovutlarini bartaraf qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rishdan mamnunmiz!

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi 2021yil
2. O'zbekiston Respublikasi prezidentining rasmiy saxifasi
<https://president.uz/oz/lists/view/5839><https://president.uz/oz/lists/view/6361>
3. Зернов В. Негосударственный сектор: анализ, прогноз развития. // Высшее образование в России 2004. №9. С. 52-5
4. И.А. Денисова · 2020, Гендерные аспекты в России
5. O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi rasmiy sayti .
<https://mehnat.uz/>
6. Lex.uz
7. Kun.uz <https://kun.uz/news/2020/02/27/xalqimizga-baliq-emas-qarmoq-berishimiz-kerak-prezident#!>

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)



³ <https://kun.uz/news/2020/02/27/xalqimizga-baliq-emas-qarmoq-berishimiz-kerak-prezident#!>